# GLOBALLASHUV DAVRIDA TARBIYACHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Jamolova Shoyira Uyg'un qizi**
**Hikmatova Dildora Mirzo qizi**
*BuxDu, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** *Tarbiyachi kasbiga xos boʻlgan muhim fazilatlar, ijodiy tafakkur hosil qilish usullari hamda bu orqali talablardan biri bolalarni sevish jamiyatda o'rin egalalshiga yordam berish kabi fikr mulohazalar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarbiyachi,tarbiyachi hamda tarbiyalanuvchi, kasbga sadoqat, tarbiyachi shaxsi, pedagogik nazokat, tashkilotchilik qobiliyati*

Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, oʻyinlarda, mashgʻulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan boʻladigan muomalada taʼsir koʻrsatadi. U har bir bolani diqqat bilan oʻrganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga oʻz vaqtida yordam koʻrsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur. Hozirgi zamon tarbiyachisining oʻz kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy eʼtiqodi, bu kasbga boʻlgan cheksiz sadoqati uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u oʻz predmetini, uning metodikasini chuqur oʻzlashtirgan boʻlishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur oʻrganishi bolalarni ilmga boʻlgan qiziqishlarini oshiradi. Bu pedagog-tarbiyachining obroʻsini koʻtaradi. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarni kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy pedagog-tarbiyachi boʻla oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, tarbiyachilik kasbiga loqayd odam haqiqiy pedagog-tarbiyachi boʻla olmaydi. Bolalarni sevish pedagogning murakkab mehnatini jozibali va yengil qiladi. Oʻqituvchi, tarbiyachining bolalarga munosabati pedagogikada tarbiyalanuvchi shaxsga hurmat, unga talabchanlik bilan bir qatorda turadi. Bu munosabat bolada pedagogga nisbatan ishonchni uygʻotadi, oʻqituvchiga bolalarga chinakam maʼnaviy murabbiy bo'lishga imkon beradi.

Har bir davlatning rivojlanib taraqqiy etishi uchun albatta unga ilmli, bilimli kuchli, irodali, sadoqatli va vataniga cheksiz mehr muhabbatli farzandlar kerak. Bunday farzandlarni shu iqtidor, shu saviyaga mos ijodkor tarbiyachilar tarbiyalay oladilar.

Jamiyatda pedagog (oʻqituvchi, tarbiyachi) oldida bir qancha ulkan vazifalar turadi.

Birinchidan, oʻsib kelayotgan avlodni tarbiyalash, ikkinchidan mehnatkash xalqimizga har tomonlama bilim berishdek savobli va maʼsuliyatli vazifalarni amalga oshiradi.

Dunyoda biror kimsa yo‘qki, uning ustozi bo‘lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mexrini qozongan yozuvchimi yoki qo‘li gul kosibmi, qo‘yingki, barcha-barchaning o‘z ustozi va hayot yo‘lini charog’on etib turuvchi yo‘lboshchisi bo‘ladi.Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma’suliyatli vazifani bajaradi.

Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini anglashga ta’lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o‘z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o‘sishiga ko‘maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi kerak bu haqda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o‘qituvchidagi tarbiyachilik qobiliyatining asosiy mohiyatini shunday ta’riflaydi: «Tarbiyachi – ustoz bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o‘zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi , buyuk fazilatlarga ega bo‘lishi kerak». Buning uchun asosiy vosita sifatida dasturiy mahsulotlardan foydalanish davr talabidir. Bolalarda kognitiv qiziqishni rivojlantirish uchun tarbiyachi katta kuch sarf qilishi kerak. Uning oldida mashg’ulot ,darsni qiziqarli va boy qilish vazifasi turibdi, bu esa bolalarni faol o’rganishga undaydi. Ya’ni, tarbiyachi tomonidan mashg’ulot jarayonida taklif qilingan materialda favqulodda, hayratlanarli, kutilmagan ma’lumotlar elementlari bo’lishi lozim, ular maktabgacha yoshdagi bolalarning o’quv jarayoniga qiziqishini uyg’otadi va ijobiy hissiy muhitni yaratishga yordam beradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida kichik hamda maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish bo‘yicha davlat talablariga muvofiq va xalqaro standartlar asosida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Ma’lumki, ta’lim jarayonining asosini o‘yin faoliyati tashkil qiladi. Eng asosiysi, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi doirasida har bir maktabgacha ta’lim tashkilotida 5 ta rivojlanish markazlari tashkil etilgan bo‘lib, pedagog-tarbiyachilar bolajonlarga qurilish va matematika, san’at, ilmiy va tabiat, til va nutq, syujetli-rolli o‘yinlar kabi yo‘nalishlarda tahsil berishmoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligi tegishli sohada Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Singapur, Turkiya, Polsha va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikni yo’lga qo‘ygan.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonida tarbiyachi oldiga qo’yilgan dolzarb masalalarni hal etish, olib borilayotgan bunday islohotlarning barchasi ona vatanimizda o’sib ulg’ayayotga yosh avlodlar uchun va yana har bir fuqaro uchun hamdir. Berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalanish , ularning qadriga yetib, yurt ravnaqi uchun o’z hissasini qo’shadigan inson bo’lish har birimizning burchimizdir.

**FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:**


1. Sharipova M. ЭПОСА" АЛПОМИШЬ"-ИСТОЧНИК НАРОДНОГО ВОСПИТАНИЯ, ВЕДУЩИЙ ПОКОЛЕНИЕ К СОВЕРШЕНСТВУ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 12. – №. 12.
2. Sharipova M. B., Muslimova L. M. Q. XALQ DOSTONLARINI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI HAMDA DOLZARBLIGI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1130-1134.
3. Sharipova M. B. Xursand Nuriddinovna Mirzayeva XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI //Scientific progress. – 2021. – №. 7.
4. Sharipova M. B. Gulshoda Fazliddin Qizi Ravshanova QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR //Scientific progress. – 2021. – №. 7.
5. Шарипова М.Б., Неьматова Ш.Н. ФОРМИРОВАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ ВОСПИТАННИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ // Вестник магистратуры. 2020. №3-3 (102). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-esteticheskoy-kultury-vospitannikov-doshkolnyh-obrazovatelnyh-uchrezhdeniy (дата обращения: 07.10.2022).
6. Шарипова М. Б., Саьдуллаева М. Модульное обучение в системе образования //Вестник магистратуры. – 2019. – №. 4-3. – С. 72.
7. Sharipova M. B., Marg'Uba Fazliddin Qizi Jomurodova X., IFODASI D. S. M. B. Scientific progress. 2021. № 7 //URL: https://cyberleninka. ru/article/n/xalqdostonlarida-sovchilik-marosimi-badiiy-ifodasi-alpomish-dostoni-misolida (дата обращения: 22.12. 2021).
8. MA'NAVIY Y. A. R. V. A., O'RNI D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU //Maktabgacha ta'lim.
9. Sharipova, Maxbuba Baxshilloyevna. "Gulasal Shavkat Qizi Farmonova NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA)." *Scientific progress* 7 (2021).
10. Sharipova M. B., Jalolova S. Z. Q. HOZIRGI MAISHIY TURMUSHDA O'Z O'RNIGA TO'LA EGA BO'LGAN MAROSIMLAR ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA) //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1114-1119.
11. Qo'ldoshev R. CHAPAQAYLIK: MUAMMO YOKI QOBILIYAT //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
12. Qo'ldoshev R. BOSHLANG'ICH SINF CHAPAQAY O'QUVCHILARGA BERILADIGAN PEDAGOGIK YORDAM VA YOZUVGA O'RGATISH JARAYONIDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.

13. Avezmurodovich Q. R., Oybekovna N. D. BOSHLANGICH SINF O'QUVCHILARINING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH. QAYTA HIKOYALASH VA BAYON TURLARI. – 2022.

14. Қўлдошев Р. А. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЧАПАҚАЙ ЎҚУВЧИЛАРНИ ЁЗУВГА ЎРГАТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 1120-1129.

15. G'aforovna, Jumayeva Habiba. "SAVOD O 'RGATISHGA TAYYORGARLIK BOSQICHIDA O 'QISH VA YOZUVGA O 'RGATISH." *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI* 2.3 (2022): 1-4.

16. Habiba G. BIRINCHI SINF O 'QUVCHILARIDA YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 983-989.

17. Navrozova, M. G. (2021). XALQONA TIBBIY BIRLIKLARDA MANO KOCHISH USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 1487-1491.

18. Gaybullaevna, N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. JournalNX, 7(06), 169-171.

19. Navruzova M. G. Lexical-semantical features of some medical linguistic units //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 2. – С. 135-142.

20. Gaybullaevna, N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. Middle European Scientific Bulletin, 12, 488-491.

21. Шарипова М. Б., Саидова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.

22. Шарипова М. Б., Саидова Д. Х. К. Методы и средства использования национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей в семье //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 3 (48). – С. 31-32.

23. Baxshilloyevna S. M. et al. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 146-152.

24. Шарипова М.Б., Хусаинова З.Х. ВОСПЕВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГЕРОИЧЕСКОМ ЭПОСЕ // Вестник науки и образования. 2021. №16-2 (119). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vospevanie-natsionalnyh-duhovnyh-tsennostey-v-geroicheskom-epose (дата обращения: 07.10.2022).

25. Sharipova M. YOSH AVLOD RUHIY VA MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA QAHRAMONLIK EPOSINING O'RNI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU, Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2021. – С. 116-117.

26. Хасанова Г. К. Педагогические особенности формирования творческой активности учащихся в начальном образовании //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 86-87.

27. Хасанова Г. К. Цель использования электронных образовательных ресурсов в системе обучения и образования //Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 84-85.

28. Хасанова, Г. К. "ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ ЛОГИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ С ПОМОЩЬЮ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ." *Проблемы науки* (2021): 90.

29. Хасанова Г. К. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ДОУ: МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА И СУЩНОСТЬ //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 173-181.

30. Хаитова Н. И., Хасанова Г. К., Мухаммедова М. Ш. ТВОРЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЧАЩИХСЯ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ //Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии. – 2016. – №. 3-1. – С. 148-153.

31. Хасанова Г. К. Интеграция предметов в современной школе как педагогическое явление //Педагогическое образование и наука. – 2017. – №. 2. – С. 127.

32. Хасанова Г. К. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СТАНОВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ ГРАМОТНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В УЗБЕКИСТАНЕ //ББК. – 2019. – Т. 71. – С. 50.

33. Kasimovna K. G. Pedagogical Research Methods of Training in Higher Educational Establishments: A Comparative Analysis //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 250-255.

34. Хасанова Г. К., Махмудова Х. У. К. Критерии, аспекты и уровни применения педагогических технологий //Academy. – 2020. – №. 5 (56). – С. 29-31.

35. Хасанова Г. К., Мирзаева Д. Ш. ПОДВИЖНАЯ ТВОРЧЕСКАЯ ИГРА КАК ОДИН ИЗ МЕТОДОВ АРТ-ПЕДАГОГИКИ //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 7. – С. 1067-1071.

36. Хасанова Г. К., Мирзаева Д. Ш. Условия успешного воспитания и обучения детей //Наука и инновации-современные концепции. – 2019. – С. 86-90.

37. HASANOVA G. Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuvlar: istiqbollar, muamolar va yechimlar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.

38. Qosimovna H. G. The concept of the development of the giftedness of Preschool Children of Creative Self-Realization //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 10.